

DEVIANT XULQLI QIZLAR BILAN OLIB BORILADIGAN PSIXOKORREKSION ISHLAR

Abduxalilova Nargiza Xayitali qizi

Qo'qon davlat universiteti

Psixologiya mutaxassisligi 2-kurs magistranti

abduxalilovanargizal@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada deviant xulqli qizlar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlarning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Psixokorreksion faoliyatda individual va guruh yondashuvlar, xususan psixodrama, xulq-atvor terapiyasi, kognitiv terapiya va ijtimoiy-psixologik (koorporativ) treninglardan foydalanish samaradorligi tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты психокоррекционной работы с девушками, имеющими девиантное поведение. Анализируется эффективность индивидуального и группового подходов, включая использование психодрамы, поведенческой и когнитивной терапии, а также социально-психологического (корпоративного) тренинга.

Annotation: This article explores the theoretical and practical aspects of psychocorrectional work with girls exhibiting deviant behavior. The study analyzes the effectiveness of both individual and group approaches, particularly psychodrama, behavioral and cognitive therapy, and socio-psychological (corporate) training.

Jamiyatda insonlarning taqdiri va kelajagi albatta davlatning yetakchi kuchlari bo'lgan yoshlar tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Mamlakatimizda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini mustahkamlash, ularning yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Zero, chuqur bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun mas'ul bo'la oladigan barkamol, maqsadga intiluvchan yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning eng muhim vazifasi hisoblanadi.

Tadqiqotimizda psixokorreksion va rivojlantirish ishlari individual hamda guruhlarda olib borilgani bizga psixokorreksion hamda psixoterapevtik usullardan foydalanishni individual psixoterapiya, guruh psixoterapiya va ijtimoiy psixologik trening (korporativ trening) ko'rinishlarida amalga oshirish uchun qulaylik tug'diradi.

Psixodrama terapiyasi guruh xarakterga ega bo'lib, o'smir psixologiyasida mavjud bo'lgan o'zgarish, xato yoki kamchilikni bartaraf qilish sahnalashtirilgan tomosha ko'rinishiga qiyoslab o'tkaziladi va psixodramaning davomligi bilan aynan ana shu muammo hisoblangan xulq-atvor o'zgarishlari va kamchiliklar tuzatib boriladi. Xulq-atvor terapiyasi - aynan yoshlar xulq-atvori, o'zaro munosabat tizimi, tarbiyasi, yo'nalganligi va dunyoqarashida yuzaga kelgan o'zgarishlar va salbiy holatlarning korreksiyalashda jahon psixologiyasi amaliyotida asosiy va ishonchga sazovor metod hisoblanadi. Terapiyaning bu usuli o'qitish, tarbiyalash qonuniyatlariga asoslangan va





ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, rivojlanish psixologiyasi nazariyasiga tayanadi. Xulq-atvor terapiyasining samaradorligi asosan uchta omilga bog'liqdir:

- o'smirning ijtimoiy muhiti (oilasi, maktab, mahalla va boshqa.) doirasini nazorat qilish imkoniyati;
- o'smir xulq-atvori, yo'nalganligi va dunyoqarashidagi salbiy o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatish imkoniyati;
- xulq-atvor terapiyasining (individual yondashuvning) nisbatan aniq yo'nalganligi, qisqa va qulayligi.

Kognitiv terapiya guruhiiy psixoterapiyaning eng samarali usullaridan biri. Kognitiv terapiyada o'smir xulq-atvori, xattixarakatlari yo'nalganligi va dunyoqarashida ijobiy o'zgarishlarni hosil qilish uchun olti bosqichda amalga oshiriladi:

1. O'smirda o'z xulq-atvoridagi salbiy holatlarni o'zgartirish zarurligiga uning ongli munosabatini (qobiliyatini) shakllantirish.
2. O'smir o'z xulq-atvoridagi salbiy o'zgarishlar mohiyatini tushunib yetishiga erishish.
3. O'smir voqelikni (borliq, tabiat, jamiyat, inson xulq-atvori, motivatsion yo'nalganligi va ongi-shuurining mushtarakligini, ularning aqliy, axloqiy va ma'naviy kamoloti o'quv-tarbiya jarayonlari bilan bog'liqligini) ilmiy tushunish va anglashga kirishishi.
4. O'smir kognitiv (ilmiy asoslarga ko'ra anglash) strategiyani egallashi va hayot faoliyatida unga amal qilib ushbu ko'nikmalarini takomillashtirib borishi. Xulq-atvoridagi salbiy uy-fikrlar, amaldagi qonunlarga xilof xatti-harakatlarni to'xtatish va ijobiylarini faollashtirish, fikrlash jarayonlarini kuchaytirishi asosida tegishli muammolarni yechishga ishonch va ongli harakatni tarkib toptirish.
5. Qat'iyatlilikni shakllantirish. O'smirlarda irodaviy sifat va fazilatlar, barqaror hissiy-emotsional holatlar, uzoqni ko'ra olish malakalarini shakllantirish. Izchillik yo'qolgan vaziyatlar identifikatsiyasi: rol ijro etish va modellashtirish orqali ijtimoiy ko'rsatma va me'yorlarga qat'iy rioya qilishga o'rgatish.
6. Ijtimoiy o'zaro ta'sirni muvofiqlashtirib borish. Ijtimoiy o'zaro ta'sir buzilishi bilan bog'liq omillar identifikatsiyasi: ijobiy ijtimoiy aloqalar darajasini muntazam oshirib borish maqsadida zarur ish-harakatlarni tanlashga odatlantirish.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida turli maqsadlarda qo'llanilayotgan ijtimoiy-psixologik treninglar va uning alohida muhim shakli bo'lgan individual va korporativ treningdan foydalanish bo'yicha muayyan tajribalar to'plangan. Bu yo'nalishda G'arbda va Rossiyada qator ilmiy tadqiqotlar (E.Berne, D.Jonson, D.Masumoto, K.Levin, G.Andreeva, A.Donsov, V.Kan-Kalik, M.Lebedeva, Yu.Emelyanov, N.Bogomolova, N.Malisheva va boshq.) olib borilgan.

Korporativ treningni yoshlar xulq-atvorini o'zgartirish va ulardagi salbiy o'zgarish va noto'g'ri tasavvurlarni bartaraf qilish vositasi va uslubi sifatida bizning milliy madaniy muhitimizda o'tkazilgan ilmiy ishlar yetarlicha emas. Bu esa tadqiqotning amaliy, tatbiqiy bosqichida aynan korporativ treningdan foydalanish g'oyasini ilgari surishga asosdir. Aslida, ijtimoiy-psixologik trening odamlarda





psixoterapevtik hamda psixokorreksion ta'sir ko'rsatish nazariyasi va amaliyoti bo'lib, uning vositasida individning shaxs sifatida kamoloti, turlicha hayotiy vaziyatlarga nisbatan o'zgarishi va moslashuvchanligi ta'minlanadi, trening vositasida insonning o'zaro munosabatlarga kirishishi asosida to'g'ri yo'nalish olish va o'z-o'zini anglash kompetentligi oshiriladi.

Ijtimoiy-psixologik treningning ishonchli va eng samarali shakllaridan biri individual hamda u bilan birga korporativ trening bo'lib, bu respondent bilan alohida ishlash va o'rtacha guruh sharoitida maxsus tashkil etilgan shaxslararo munosabatlarni samarali yo'lga qo'yishga xizmat qiluvchi o'ziga xos psixologik ta'sir texnologiyasi hisoblanadi.

Psixokorreksion dastur asosida xulqi og'ishgan o'smirlar bilan ishlash, shunchaki diagnostik metodikalarni hamda psixokorreksion mashg'ulotlarni o'tkazishdan farqli ravishda professional yondoshuvdir. Shu o'rinda oydinlik kiritib o'tish kerak, psixokorreksion dastur – bu korreksion-rivojlantiruvchi ishlarining mazmun-mohiyatini hamda ketma-ketligini o'zida aks ettiruvchi normativ hujjatdir. Psixokorreksion dasturlar bu amalga oshiriladigan korreksion yoki rivojlantiruvchi ishlarni rejalashtirishning o'ziga xos usuli ham bo'lib, unda maqsad va vazifalar, faoliyat qaratilgan ob'ekt aniq belgilanishi lozim.

Psixokorreksion dasturlarni tuzishda belgilangan mezonlar mavjud bo'lib ular umumiy samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Mezonlar esa quyidagilarni tashkil etadi:

- korreksion, rivojlantiruvchi, profilaktik vazifalarning tizimlilik mezoni. Bunda foydalaniladigan usullar bir-birini to'ldirishi hamda mantiqiy ketma-ketlikka ega bo'lishi lozim;
- korreksiya va diagnostikaning uyg'unligi va umumiyligi, ya'ni diagnostika asosida, aniq shaxs sohasini belgilab uni korreksiya qilib borilishi mezoni;
- kauzal tipdagi korreksion faoliyatning ustunligi muammoning o'zini, keltirib chiqarayotgan salbiy ta'sirlarini emas uning asl sabablarini ham bartaraf etish mezoni;
- aniq yo'llar, usullar, taktika va texnikalarni belgilab olish;
- yosh va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish;
- psixologik ta'sir metodlarining kompleks xususiyatga ega ekanligi;
- yaqin ijtimoiy muhitni (muayyan bevosita aloqador insonlarni) korreksion faoliyatga jalb qilish;
- psixologik jarayonlarga ta'sir qilishga qaratilgan usullardan foydalanish;
- ta'lim-tarbiyani dasturlashtirish;
- murakkablashtirib borish, ya'ni beriladigan topshiriqlarda qo'yiladigan masalalarni qiyinlik darajasini o'sishini ta'minlash;
- bir darajadagi materiallar o'zlashtirilgachgina ikkinchi darajaga ko'tarilish. Beriladigan topshiriqlar salmog'ini hisobga olish;
- materialning emotsional jihatdan qiyinligini hisobga olish kabi asosiy va umumiy mezonlarni o'z ichiga oladi.





Bugungi kunda psixokorreksion va psixologik rivojlantiruvchi faoliyatga nisbatan ko'plab yondoshuvlar va texnologiyalar mavjud. Jumladan: psixodinamik, kognitiv, axloqiy, gumanistik yondoshuvlarni aytib o'tish mumkin. Psixokorreksion texnologiyalar qatoriga esa, o'yin terapiya, art-terapiya, psixodramma, psixogimnastika, trening va suggestiv(mantiqiy) texnologiyalarni ham kiritishimiz mumkin.

Psixokorreksion dastur yahlit kompleks sifatida A.A.Osipovanning fikriga ko'ra, o'ziga xos 4 ta maqsadli bloklarni o'z ichiga olishi lozim, ular: diagnostik, kontakt, korreksion va baholash bloklaridir.

1. Diagnostik blok – shaxs rivajlanishidagi o'ziga xosliklarni diagnostika qilish, xatarli faktorlarni aniqlash, umumiy korreksion dasturni shakllantirish.

2. Kontakt bloki – o'zaro ijobiy munosabatni va birgalikda ishlash ixtiyorini vujudga keltirish, mijozda bezovtalikni bartaraf qilish va o'ziga ishonchni oshirish, psixolog bilan o'zaro hamkorlik qilib o'zining hayotida nimanidir o'zgartirish istagini rivojlantirish.

3. Korreksion blok – mijoz shaxs gormoniyasini (uyg'unlik holatini) yuzaga keltirish, salbiy fazalardan ijobiy fazalarga o'tish, o'zi bilan va atrofdagilar, borliq bilan o'zaro ijobiy ta'sirlashuv munosabalarini paydo qilish, muayyan (kerakli bo'lgan) psixologik faoliyat bilim-ko'nikmalarini egallash.

4. Korreksion ta'sir effektivligini baholash bloki – o'zini ijobiy baholashni muvozanatlashtirish, psixologik mohiyatni va dinamika reaksiyalarini o'zgartirish, ijobiy xulq-atvor kechinmalari va reaksiyalariga ta'sir qilish, umumiy ijobiy o'zgarishlar dinamikasini kuzatish.

Aytish joizki, har bir maqsadli blok ta'rifi amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlarni ta'riflab o'zida jamlaydi. Bu chora-tadbirlar strukturasi o'tkazilgan mashg'ulotlarning foydali ta'siri yoki aks ta'siri bilan o'zgarib yoki rivojlatirilib borishi maqsadga muvofiq.

Psixokorreksion dasturlar qamroviga muvofiq ikki turga bo'linadi:

Psixokorreksion dasturni tuzish jarayoni, uni amalga oshirish hamda tashkillashtirish asoslarini ham o'zida aks ettiradi.

M.R.Bityanovanning fikriga¹ ko'ra, mashg'ulotlarning intensiv shakli har qanday ta'lim yoki tarbiya muassasalari amaliy psixologlari uchun nisbatan qulay bo'lib, amaliy psixolog va mijoz orasida 4-5 hafta davomida 10-12 ta uchrashuv tashkil etish sikli samaradorligi belgilangan. Psixokorreksion dastur ham shu sikl doirasida tuzilishi maqsadga muvofiq. Muallif shuni ta'kidlaydiki, individual korreksion faoliyatga nisbatan guruhii korreksion faoliyat (bunda ijtimoiy-psixologik, guruhii psixoterapevtik trening mashg'ulotlari)ni tashkil etish qiziqarli va samaraliroqdir. Tajribamizdan kelib chiqqan holda, muallif fikriga qo'shilamiz. Lekin, individual psixokorreksion dasturlar va guruhii psixokorreksion dasturlarni shakllantirishda

¹ Битянова, М. Р. Организация психологической работы в школе [Текст] / М. Р. Битянова. - М. : Совершенство, 1997. - 298 с.





alohida e'tibor berish kerak bo'lgan jihatlar ham mavjud. Ularni e'tiborsiz qoldiradigan bo'lsak, psixokorreksion dasturning muvaffaqiyatsizligiga sabab bo'lishi hamda o'smirga biz istagan ijobiy korreksion ta'sirni amalga oshira olmasligimiz mumkin. Bu farqli jihatlarni quyida keltiriladigan namunaviy psixokorreksion dasturlardan ajratib olamiz.

M.R.Bityanovanning yana bir fikriga ko'ra muntazam ravishda yagona siklga solingan har bir trening quyidagi 6 ta elementlarni o'zida jamlab yahlit strukturani xosil qilishi har bir uchrashuvning psixokorreksion ta'sir va guruhiiy mashg'ulot samaradorligini oshiradi:

1. Salomlashish rituali. Bu o'zaro guruhda jamoaviylik, kirishimlilik, o'zaro ishonch va umumiy faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan ritual bo'lib, bunda amaliy psixolog o'zining tajribasidan kelib chiqqan holda turli salomlashuv mashg'ulotlaridan foydalanishi mumkin yoki buni guruhning tashabbusi bilan turli shakllarda tashkil qilishi ham mumkin. Lekin amaliy psixolog tajribadan o'tgan, jamoaviylik va o'zaro ijobiy munosabatlarni shakllantiruvchi usullardan foydalangani ma'qulroq.

2. Chigil yozdi mashqlar. Bu mashqlar, guruhni emotsional boshqarishga yordam beradi. Ular orqali guruhni faollashtirish, emotsional bosimni olib tashlash yoki shunchaki tinchlantirish mumkin. Bu mashqlar xususiyatiga qarab asosiy mashg'ulotga jalb qilish maqsadida tanlanishi lozim, chunki ayrim mashg'ulotlar faollikni yuqori emotsional kayfiyatni talab etsa, ayrimlari shunchaki diqqatni jamlashni talab etadi.

3. O'tgan mashg'ulot refleksiya (qayta aloqa, o'tgan uchrashuvdagi mashg'ulotda egallangan bilim-ko'nikmalarni qisqa muhokama qilish) Bu element, o'tkazilayotgan psixokorreksion tadbirning mustahkamlovchi mexanizmdir. Refleksiya otatda yoqdi-yoqmadi, tushundim-tushunmadim, yaxshi bo'ldi-yomon bo'ldi tarzida amalga oshadi. Refleksiyaning asosiy maqsadi mashg'ulot mohiyatini o'smir xotirasida qoldirish, bu nima uchun kerak, hayotda uning qanday foydasi bor degan savollarni aktuallashtirib unga kerakli va bilim ko'nikmani singdirish. Refleksiyada albatta amaliy psixolog turli savollar bilan o'smirga qayta aloqa qilishga yordam berishi, qo'llashi lozim, chunki gohida uning shunchaki so'z boyligi yetmasligi yoki biror kompleks halal berishi mumkin.

4. Asosiy mashg'ulot. Bu – psixologik mashg'ulotlar, psixotexnikalar, usullardan foydalanib qo'yilgan topshiriqni yechishni nazarda tutuvchi jamlanma bo'lib, korreksion-rivojlantiruvchi xususiyatni kasb etishi lozim. Shu o'rinda bilish jarayonlari, ijtimoiy-psixologik ko'nikmalar va jamoaviy dinamikani rivojlantirishni asosiy ko'zlangan natija qilish lozim.

5. Asosiy refleksiya (qayta aloqa, bugungi uchrashuvdagi mashg'ulotda egallangan bilim-ko'nikmalarni qisqa muhokama qilish) Bu element, o'tkazilayotgan psixokorreksion tadbirning mustahkamlovchi mexanizmdir. Refleksiyaning amalga oshirish doimo muhim, chunki bundan o'tkazayotgan mashg'ulotlarimiz o'zining psixokorreksion ta'sirini va natijasini ko'rsatayotganini monitoring qilish mumkin. Va shunga qarab o'rni kelganda metodlarni, yondoshuvlarni umumiy samaradorlikni





oshirish uchun o'zgartirish, qayta shakllantirish yoki butkul boshqasiga almashtirish mumkin.

6. Hayrlashuv rituali. Bu ritual ham o'zida samlomlashuv ritualini funktsiyalarini jamlashi lozim bo'lib, qo'shimcha ravishda, o'ziga xos tantanali bo'lishi kerak. Bunda qarsaklar va ijobiy motivatsion shiorlardan foydalanilgan kichik mashg'ulotlardan foydalanish o'smirda keyingi uchrashuvlar uchun stimul bo'ladi hamda yaxshi kayfiyatni ta'minlaydi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, biz olib borgan tadqiqotimiz davomida shunga yana bir marotaba guvoh bo'ldikki, XXI asr har bir kishidan yangi qobiliyatlar, intellektual salohiyat, kuchli tafakkur, o'tkir zehn bilan birga o'zini shaxs sifatida tarkib toptirish, milliy g'urur, o'zlikni anglashni talab qilmoqda. O'smir qiz kamolotga erishish uchun o'zaro munosabatlarda g'amxo'r va mehribon bo'lishi, o'zini shu munosabatlarga tayyorlashi, o'zgartirishi kerak. O'smir qiz o'zini qadrlashi, sevishi, hurmat qilishi atrofdagilarning unga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Bu munosabatlar uning xarakteri, ongida hayotning qanchalar go'zalligini his qilish, o'z iqtidori, bilimi, qobiliyatini namoyon qilishga zamin yaratadi

